

**YO‘QOTILGAN AVLOD QAHRAMONLARI ONGIDA IDEALLASHTIRILGAN  
O‘TMISH: PSIXOLOGIK TAHLIL**  
(F. S. Fitsjeraldning “Buyuk Getsbi” va E. Hemingueyning “Alvido, qurol” asarlari  
asosida)

**Baxrombekova Rayhona Akramjon qizi,**

*Namangan davlat universitet*

*Jahon tillari fakulteti*

*Adabiyotshunoslik (ingliz adabiyoti) yo‘nalishi magistranti*

*Email: bahrombekova.rayhona0402@gmail.com*

**Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi,**

*NamDU, Amaliy xorijiy tillar kafedrasi mudiri, PhD*

*E-mail: kulievadilshoda98@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Birinchi jahon urushidan keyingi davr adabiyotida shakllangan “Yo‘qotilgan avlod” vakillarining ruhiyatidagi o‘tmishga bo‘lgan nostalgik intilishlar tadqiq etiladi. F.S.Fitsjerald va E. Heminguey asarlari misolida qahramonlarning post-traumatik holati, ularning real voqelikdan qochib, o‘tmishni ideallashtirishi psixologik va komparativistik jihatdan tahlil qilinadi. Getsbi va Frederik Genri obrazlari orqali “o‘tmishni qaytarish” va “vaqtni to‘xtatish” kabi ekzistensial urinishlarning fojiaiy yakuni yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yo‘qotilgan avlod, idealizatsiya, nostalgia, post-traumatik stress, Jey Getsbi, Frederik Genri, Amerika orzusi, ekzistensial inqiroz.

**Аннотация:** В данной статье исследуется ностальгическая тоска по прошлому в психике представителей «потерянного поколения», сформировавшегося в литературе периода после Первой мировой войны. На примере произведений Ф.С. Фицджеральда и Э. Хемингуэя с психологической и сравнительной точек зрения анализируются посттравматическое состояние героев, их бегство от реальности и идеализация прошлого. Через образы Гэтсби и Фредерика Генри подчеркивается трагический конец экзистенциальных попыток, таких как «возвращение прошлого» и «остановка времени».

**Ключевые слова:** «потерянное поколение», идеализация, ностальгия, посттравматическое стрессовое расстройство, Джей Гэтсби, Фредерик Генри, американская мечта, экзистенциальный кризис.

**Abstract.** This article examines the nostalgic longing for the past in the psyche of the representatives of the “Lost Generation” formed in the literature of the period after the First World War. Using the example of the works of F.S. Fitzgerald and E. Hemingway, the post-traumatic state of the heroes, their escape from reality and idealization of the past are analyzed from a psychological and comparative perspective. Through the images of Gatsby and Frederick Henry, the tragic end of existential attempts such as “returning the past” and “stopping time” is highlighted.

**Keywords:** Lost Generation, idealization, nostalgia, post-traumatic stress, Jay Gatsby, Frederick Henry, American dream, existential crisis.

**Kirish.** Dunyo adabiyotida XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan “Yo‘qotilgan avlod” adabiy yo‘nalishiga mansub ijodkorlarning o‘ziga xos uslubi, ularning asarlarida aks etgan urush mavzusi va urushdan keyingi yillardagi ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, ma’naviy masala va g‘oyalar talqini borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. “Yo‘qotilgan avlod” namoyandalari asarlariga xos muhim jihatlar, asarlarining arxitektonikasi, ularda tasvirga olingan voqealarning keskin rivoji va yopiq yechimi,

mualliflarning obraz yaratish mahorati, asarlarda ilgari surilgan badiiy-falsafiy g'oyalar tasvirlangan epik turga mansub asarlarni o'rganish, qardosh bo'lmagan Amerika va o'zbek adabiyotida "yo'qotilgan avlod" fojiasining psixologik hamda ijtimoiy aspektlarini "yo'qotilgan avlod" tarixiy-ijtimoiy voqelik hosilasi sifatida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek adabiyotshunosligida "Yo'qotilgan avlod" mavzusidagi tadqiqotlar uchramasa-da, urush davri (harbiy) adabiyotga bag'ishlangan mavzuda izlanishlar olib borilgan. Bu borada Umurzoq O'ljaboyevning o'zbek adabiyotida urush mavzusidagi asarlar tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlari ahamiyatlidir. Shuningdek, Go'zal Himmatovanning "Qo'chqor Norqobil nasrida davr va shaxs talqini" mavzusidagi tadqiqotining ikkinchi bobi urush mavzusi va qahramon taqdiriga bag'ishlangandir. Yuqorida ta'kidlangan urush mavzusidagi ayrim ishlarni istisno qilganda, "Yo'qotilgan avlod" – urush odamlari psixologiyasi mavzusiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Umuman, dunyo adabiyotshunosligida tan olingan va tadqiq etilgan "Yo'qotilgan avlod" muammosi o'zbek adabiyotshunosligida deyarli tadqiq etilmaganligi mazkur fundamental tadqiqotni yaratishga undadi.

**Adabiyotlar tahlili.** "Yo'qotilgan avlod" tushunchasi Birinchi jahon urushi jarayonida va undan keyin voyaga yetgan yoshlarning ruhiy-ma'naviy iztiroblaridan kelib chiqqan. Bu atama dastlab E. Heminguey va uning zamondoshi Gertrud Shtayn bilan bog'liq bo'lib, adabiyot maydonida mustahkam o'rnashdi. Shtayn Parijdagi garaj egasidan eshitgan "génération perdue" iborasini E. Heminguey o'zining "Quyosh baribir chiqaveradi" romaniga epigraf sifatida kiritdi. Shundan so'ng atama keng tarqalib, adabiy-estetik oqim sifatida shakllandi. Mazkur avlodga odatda 1883–1900-yillarda tug'ilib, Birinchi jahon urushi yillarida frontga safarbar etilgan yoshlar mansub bo'lib, ular urush maydonidan jismonan tirik qaytsalar-da, ma'naviy-ruhiy jarohat olgan holda oddiy hayotga moslasha olmadilar. Shu bois ularning bir qismi spirtli ichimliklarga berildi, jinoyat yo'lga kirdi yoki o'z joniga qasd qildi. Ularning ijodida urushdan kelib chiqqan begonalashuv, sarsonlik, qadriyatlariga ishonchsizlik, tanazzul kayfiyati asosiy motiv bo'lib xizmat qildi. Yevropada ushbu avlod "1914-yil avlodi" yoki "olov ichida toblangan avlod" deb atalgan bo'lib, ayniqsa Britaniyada urush frontida halok bo'lgan yosh ziyolilarni ifodalash uchun qo'llanilgan. Isaak Rozenberg, Uilfred Ouens, Rupert Bruk singari shoirlarning fojiali o'limi hamda bastakor Jorj Butternortning ayanchli qismati bu avlodning ramziy timsoliga aylangan. Erix Mariya Remarkning "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" va "Qora haykal" asarlarida esa urush dahshati, ruhiy jarohatlar hamda urushdan keyingi ma'naviy inqiroz chuqur tasvirlangan. Ouening "Dulce et Decorum Est" she'ri yoshlarning befoyda qurbon bo'lishini fosh etuvchi misollardan biridir. Amerika adabiyotida bu atama ko'proq Parijda to'plangan yozuvchi va rassomlar guruhiga nisbatan ishlatilgan. E.Heminguey, F.S. Fitsjerald, Gertrud Shtayn, Ezra Paund, T.S.Eliot, Doroti Parker kabi ijodkorlarning asarlari "yo'qotilgan avlod"ning estetik bayoniga aylandi.

E.Hemingueyning “Alvido, qurol!”, F.S.Fitsjeraldning “Buyuk Getsbi” asarlarida urushdan keyingi jamiyatning dekadent kayfiyati, qadriyatlar inqirozi va insoniy munosabatlarning yemirilishi yaqqol ifodalangan.

E.Hemingueyning “Alvido, qurol!”, F.S.Fitsjeraldning “Buyuk Getsbi” asarlarida urushdan keyingi jamiyatning dekadent kayfiyati, qadriyatlar inqirozi va insoniy munosabatlarning yemirilishi yaqqol ifodalangan. Nemis adibi Erix Maria Remark “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani orqali bu avlodning ayanchli qismatini keng jahon adabiyotiga olib chiqdi. Uning “Qaytish” va “Uch og‘ayni” romanlari ham urushdan keyin tirik qolganlarning iztirobli taqdirini ifodalaydi. Shu tarzda “yo‘qotilgan avlod” fenomeni nafaqat Amerika, balki Yevropa adabiyotida ham keng qamrovli oqim sifatida shakllandi. Mazkur avlodning o‘ziga xosligi shundaki, ular ota-onalarining an‘anaviy qadriyatlarini rad etib, yangi dunyoqarash izladilar. Biroq topilgan yo‘l ko‘pincha beqaror turmush, begonalashuv, ichkilikbozlik va umidsizlik bilan yakunlandi. Shu bois G‘arbda “Adashgan avlod” iborasi ham qo‘llanib, bu atama hayotda ma‘naviy yo‘nalishini yo‘qotgan, kelajakka ishonchsiz qaragan yoshlarning umumiy taqdirini bildirgan. Shunday qilib, “yo‘qotilgan avlod” atamasi tarixiy-ijtimoiy sharoit mahsuli sifatida yuzaga kelib, XX asr adabiyotida urushdan keyingi insonning ruhiy va ma‘naviy iztiroblarini, jamiyatdan begonalashuvini va qadriyatlar inqirozini badiiy timsollarda ifodalashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Birinchi jahon urushi nafaqat siyosiy xaritalarni, balki insoniyatning qadriyatlar tizimini ham vayron qildi. Gertruda Shtayn tomonidan “Yo‘qotilgan avlod” deb atalgan ushbu qatlam qonli janglardan omon qaytgan bo‘lsa-da, ruhan tushkunlik, ma‘naviy bo‘shliq va kelajakka ishonchsizlik domida qoldi. Bu avlod qahramonlarining umumiy xususiyati - ular yashayotgan “hozirgi zamon”ning ma‘nosizligidir. Psixologik nuqtai nazardan, bu qahramonlar post-traumatik stress (PTSD) holatida bo‘lib, ularning ongi himoya mexanizmi sifatida o‘tmishni ideallashtirishga moyil bo‘ladi. F.S.Fitsjeraldning “Buyuk Getsbi” asaridagi Jey Getsbi va E.Hemingueyning “Alvido, qurol” asaridagi Frederik Genri ana shunday psixologik determinatsiya qurbonlaridir. Maqolaning maqsadi ushbu qahramonlar ongida o‘tmishning qanday qilib “muqaddas makon”ga aylanganini va bu idealizatsiyaning fojiaiy oqibatlarini tahlil qilishdir.

E.Heminguey romanida voqealar xronologik oqimda berilib, bosh qahramon Genri urushni bevosita boshdan kechiradi. Uning ichki holati, hushdan ketish va hushga qaytish jarayonlarida ong ostining faollashuvi o‘quvchini ruhiy azoblar olamiga olib kiradi. Bu holat yozuvchining o‘z biografiyasi bilan hamohang bo‘lib, asardagi iztirob manzaralari ishonarlilik kasb etadi. Genri sevgilisi Ketrinni yo‘qotganidan keyin kelajakka ishonchini butunlay boy beradi va “yo‘qotilgan avlod”ning ruhiy sinishi ramziga aylanadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Amerika va o‘zbek yozuvchilari turli tarixiy sharoitda, turli ijtimoiy kontekstda ijod qilsalar-da, urushning insoniy mohiyatini

begonalashuv, ruhiy sinish, yo‘qotilgan orzular va ezilgan muhabbatni umumiy nuqталarda birlashtiradilar. Genri jismonan tirik bo‘lsa-da, ma‘nan o‘lik; “Tushda kechgan umrlar” asari qahramoni Rustamjon esa ruhiy zarbalar ta‘sirida o‘z hayotini yakunlaydi. Har ikki qahramon ham “yo‘qotilgan avlod”ning ikki turli ko‘rinishi sifatida badiiy timsollarda namoyon bo‘ladi. Shu bois, bunda urushning faqat maydonlardagi talafot emas, balki jamiyat va inson ruhiyatini chirmab tashlagan ulkan ijtimoiy-psixologik muammo sifatida tasvirlanganini ochib beradi.

“Yo‘qotilgan avlod” adabiyotida qadriyatlar va dilemmalar muammosi markaziy o‘rin tutadi. Urush mavzusidagi asarlar yuksak axloqiy tamoyillar va insoniy qadriyatlarni himoya qilgan holda, urushning g‘ayriinsoniy mohiyatini ochib beradi. Tadqiqotchilardan Sh.Choriyeva ta‘kidlaganidek, frontda qatnashmagan yozuvchilar - G.Stayn, U.Folkner, O.Xakslilarning asarlarida ham jamiyatdagi ma‘naviy yemirilish, qadriyatlarning yo‘qolishi, oila va turmush tarzining izdan chiqishi asosiy mavzu sifatida yoritilgan.

**Natijalar va ularning tahlili.** Getsbi va "o‘tmishni sotib olish" illyuziyasi: Jey Getsbi obrazi tahlili shuni ko‘rsatadiki, qahramon o‘tmishni moddiy boylik orqali qayta tiklash mumkin degan illyuziyada yashaydi. Uning hashamatli ziyofatlari, ulkan qasri va boyligi barchasi besh yil avval yo‘qotgan Deyzi muhabbatini qaytarib olishga qaratilgan vositadir. Biroq real Deyzi bilan xayoliy "ideal Deyzi" o‘rtasidagi farq tobora chuqurlashadi. Getsbi ongida o‘tmish shunchalik muqaddaslashtirilganki, u haqiqatni ko‘rishdan ojiz qoladi. Natijada bu psixologik ko‘rlik uning halokatiga bevosita sabab bo‘ladi. Tadqiqot Getsbi misolida "Amerika orzusi"ning o‘zi ham bir idealizatsiya mahsuli ekanligini boylik va muvaffaqiyat orqali yo‘qotilgan baxtni qaytarib bo‘lmasligini isbotlaydi.

2. Frederik Genri va “Urushdan oldingi xotirjamlik” sog‘inchi: “Alvido, qurol” qahramoni uchun o‘tmish bu urush daxshatlarigacha bo‘lgan ma‘sumlik davri. U Ketrin Barkli bilan munosabatlarida aynan shu yo‘qotilgan osoyishtalikni qidiradi. Urushdan qochish (desertirlik) aslida qahramonning o‘tmishdagi normal hayotga qaytishga bo‘lgan ongsiz intilishidir. Biroq, E.Heminguey qahramoni uchun o‘tmish Getsbidan farqli o‘laroq, erishib bo‘lmas jannat kabi talqin etiladi.

3. Idealizatsiyaning psixologik funksiyasi: Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, Getsbi va Genri o‘tmishni idealizatsiya qilishning ikki turli modelini ifodalaydi. Getsbi **faol idealizatsiya** modeliga mansub- u o‘tmishni qaytarish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanadi, kurashadi, harakat qiladi. Genri esa **passiv idealizatsiya** modelini namoyon etadi -u o‘tmishni qaytarib bo‘lmasligini his qiladi, lekin undan voz kecha olmaydi. Shu bois Getsbi o‘lim bilan, Genri esa Ketrinning vafotidan so‘ng mutlaq yolg‘izlik va ma‘naviy sinish bilan yuzlashadi. Har ikki yakun ham bir xil deterministik fojiani tasdiqlaydi: ideallashtirilgan o‘tmishga ortiqcha bog‘lanish insonni hozirgi zamonda yashashdan mahrum etadi.

AQSH hamda o'zbek nasridagi uslubiy mushtarakliklarni tahlil qilish ikki ijtimoiy muhit vakillari ijod uslubining poetik taraqqiyot xususiyatlarini, qahramonlarning ichki dinamikasini, obraz tanlash va tasvirlashdagi yondashuvlarini qiyosiy adabiyotshunoslik doirasida ilmiy talqin qilish imkonini beradi. Asrlar davomida o'ziga xos uslub va ovozigaga ega bo'lgan ijodkorlarga badiiy adabiyotning yuksak cho'qqilarini zabt etib kelmoqda.

K.Simonov XX asrning 60-yillarida "har bir ijodkor, yirik yozuvchining o'zi bir uslubdir" deb Sh.Choriyeva yozgan edi. I.Gyote esa "uslub idrokning eng tub qatlamlarida, narsalarga xos mavjudlikning o'zida qaror topadi", deya ta'kidlagan. Har bir ijodkorning o'ziga xos betakror uslub bo'lgandagina u chin iste'dod sohibi sifatida asarlar yaratadi. Shuning uchun har bir asar muallifning ichki iqrornomasi sifatida ham baholanadi. A.Blokning "Inson - bu uslub" degan qarashi yozuvchining voqelikni idrok etish va ifodalashdagi betakrorligini ifodalaydi. Demak, uslub badiiy asarning oddiy tashqi shakli emas, balki ijodkorning voqelikni badiiy idrok qilish va ifodalashdagi shaxsiy sifatlari hamdir. Adabiyotshunos D.Quronov va boshqalarning "Adabiyotshunoslik lug'ati"da esa uslub badiiy asarning shakliy qurilishini belgilovchi umumiy prinsip sifatida talqin qilinadi. Uslub ijodkor shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lib, badiiy asarning barcha qatlamlarida ritorika, poetika va tuzilishda yaqqol namoyon bo'ladi. E.Hemingueyning asarlari urushni boshidan kechirgan insonlarning iztiroblari va psixologik kurashlarini ixcham, samimiy va o'ziga xos uslubda ifodalaydi. Uning nasriy bayoni minimalistik, lekin kuchli subtekstga ega bo'lib, "aysberg nazariyasi" asosida qurilgan. Bu uslub voqealarning yuzasidan ko'ra ostki ma'nolarini o'quvchiga anglash imkonini beradi. E.Heminguey romanlarida avtobiografik motivlar, tabiiylik va hayotiy mantiqning uyg'unligi, dialoglarning ustuvorligi va reportaj ohangi seziladi. Masalan, "Alvido, qurol!" romanida Frederik Genrining obrazi yozuvchining o'z urush tajribasiga asoslangan. Jurnalist sifatidagi ma'lumoti ham uning uslubida yaqqol ko'rinib, faktlarga e'tibor, sodda va bevosita ifoda bilan uyg'unlashadi.

**Xulosa.** E.Hemingueyda o'tmish "yo'qotilgan muvozanat" timsolidir. Frederik Genri urushning ma'nosizligini anglagach, Ketrin bilan o'zining "shaxsiy tinchlik" hududini yaratmoqchi bo'ladi. Ammo o'tmishni ideallashtirish ularni voqelikdan uzoqlashtiradi va yakunda har ikki qahramon ham "vaqt g'ildiragi" ostida qoladi. Getsbi o'lim bilan, Genri esa Ketrinning vafoti va yolg'izlik bilan yuzlashadi. Bu "Yo'qotilgan avlod" uchun xos bo'lgan deterministik fojidadir: o'tmish o'lik, hozirgi zamon esa bo'sh.

F.S. Fitsjerald va E.Heminguey asarlaridagi qahramonlar obrazi orqali shuni aytish mumkinki, "Yo'qotilgan avlod"ning fojiasi ularning kelajakni tasavvur qila olmasligida va o'tmishni keragidan ortiq muqaddaslashtirishidir. Ideallashtirilgan o'tmish ular uchun ham najot, ham halokat maskanidir. Getsbi va Genri misolida o'tmishga bo'lgan nostalgia insonni ruhan yuksaltirishi, ammo voqelikni qabul qilmaslik yakunda shaxsning halokatiga olib kelishi ilmiy-psixologik jihatdan tasdiqlanadi.

“Yo‘qotilgan avlod”ning maydonga kelish manbasi Birinchi va Ikkinchi jahon urushlaridir. XX asr dunyo adabiyotida inson va urush mavzusi, urush va tinchlik mavzulari qanchalik dolzarblik kasb etgan bo‘lsa, undan keyingi davrlarda “yo‘qotilgan avlod” vakillarining murakkab va ziddiyatlarga to‘la qismati dunyo olimlari, jumladan, adabiyotshunoslarni ham o‘ylantirib qo‘ydi. XX asr jahon adabiyotida “inson va urush” mavzusining badiiy talqinlari har bir mamlakatda har xil yozuvchilar tomonidan turli nuqtayi nazarlarga ko‘ra talqin etilgan bo‘lsa-da, ularni keyinchalik “yo‘qotilgan avlod”ga aylangan urush qahramonlari birlashtirib turadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qurbonova Sh.Sh. The tragedy of the “Lost Generation” in English and Uzbek literature. Monografiya. – United Kingdom: “Lap Lambert academic publishing” 2025. – 104 p. ISBN: 978-620-8-45241-4.
2. Qurbonova Sh.Sh. The Lost Generation and Its Exploration of Disillusionment and Alienation in a Changing World of Literature. American Journal of Philological Sciences. ISSN: 2771-2273. Volume 04, Issue 11. – 2024. – Pp. 23-28. (DOI 10.37547/ajps/Volume05Issue03-11)
3. Qurbonova Sh.Sh. The Lost Generation and Its Influence on Literature and Culture in the Wake of World War I. European International Journal of Philological Sciences. ISSN: 2751-1715. – Volume 04, Issue 11. – 2024. – Pp. 1-4. (doi.org/10.55640/eijps-04-11-01)
4. Fitzgerald, F. S. (1925). The Great Gatsby. Charles Scribner's Sons.
5. Hemingway, E. (1929). A Farewell to Arms. Jonathan Cape.
6. Stein, G. (1933). The Autobiography of Alice B. Toklas. Harcourt, Brace.
7. Freud, S. (1917). Mourning and Melancholia. Standard Edition.
8. Mamatov, A. (2010). XX asr xorijiy adabiyoti tarixi. Toshkent.
9. Wilson, E. (1941). The Wound and the Bow: Seven Studies in Literature. Houghton Mifflin.
10. Cowley, M. (1951). Exile's Return: A Literary Odyssey of the 1920s. Viking Press.
11. Remarque, E. M. (1929). All Quiet on the Western Front. Little, Brown and Company.
12. Затонский Д.В. Искусство романа и XX век. – М.: Художественная литература, 1973. – 535 с.
13. Hemingway, E. (1926). The Sun Also Rises. Charles Scribner's Sons.
14. Owen, W. (1920). Dulce et Decorum Est / The Poems of Wilfred Owen. Chatto & Windus.
15. Quronov, D., Yo‘ldoshev M., Raximjonova S. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademyashr, 2010. – 240 b.
16. Choriyeva Sh. “Yo‘qotilgan avlod” adabiyotida qadriyatlar masalasi. – Toshkent, 2019.
17. Гёте И.В. Простое подражание природе, манера, стиль // История эстетики. Памятники мировой эстетической мысли. В 5 т. Т. 3. – М.: Искусство, 1962–1970. – С. 16–17.
18. Herman, J. L. (1992). Trauma and Recovery: The Aftermath of Violence – from Domestic Abuse to Political Terror. – New York: Basic Books. – 290 p.
19. American Psychiatric Association. (2013). Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5). – Washington, DC: APA. – 947 p.
20. Симонов К.М. Сегодня и давно. Статьи. Воспоминания. Литературные заметки. – М.: Советский писатель, 1974. – 480 с.
21. Блок А.А. Собрание сочинений в 8 томах. Том 5: Проза 1903–1917. – М.–Л.: Государственное издательство художественной литературы, 1962. – С. 348–349.